ON AZIM HOJIYEV'S DICTIONARY OF SYNONYMS

AZIM HOJIYEVNING SINONIMLAR LUG‘ATI XUSUSIDA

Mamatqulov Azizbek Rustamovich*

* **Guliston davlat universiteti (O‘zbekiston)**

Abstract. This article is devoted to academician Azim Hajiyev's scientific-theoretical lexicographic research of Uzbek language synonyms. A. Hojiyev's attempts to create the first Uzbek dictionary of synonyms, the structure of the dictionary and the issue of providing dictionary articles in them are discussed. Synonyms serve as illustrative material of dictionary articles. Also, in the article, Azim Hajiyev's dictionary of synonyms of the Uzbek language and its main differences from the dictionaries created in the later period and the use of Azim Hajiyev's scientific heritage in the work carried out on the topic of synonyms after the period of independence. The importance of synonyms in the Uzbek language and the scientist's scientific views on its improvement are reflected.

Key words: synonym, synonym, term, dictionary, dictionary article, dictionary of synonyms.

Azim Hojiyevning “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati” o‘zbek tilshunosligi tarixida eng birinchi nashr etilgan sinonimlar lug‘ati hisoblanadi. Bu asar 1700 dan ortiq o‘zbek tilidagi asosiy sinonimlarni o‘z ichiga olgan. Lug‘at 1963-yil O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti tomonidan filologiya fanlari nomzodi Z.M.Ma’rufov tahriri ostida, Azim Hojiyev muallifligida 4 000 nusxada nashr etilgan.

Lug‘at tuzilishi quyidagicha bo‘lib, dastlab “Sinonimlar va sinonimlar lug‘ati haqida” maqola berilgan. Unda sinonim so‘zlar haqida nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

Yigirmanchi sahifadan boshlab sinonim so‘zlar izohi berish bilan boshlangan. Sinonim so‘zlarga lug‘at maqola berilgan. Lug‘at maqolada dastlab sinonimik qatordagi so‘zlarning birlashtiruvchi ma’nosi ko‘rsatilgan, undan so‘ng har bir sinonim so‘zning o‘ziga xos ma’no xususiyatlari ochib berilgan. Sinonimlarni birlashtiruvchi ma’no va farqli belgi-xususiyatlari misollar bilan dalillangan (lug‘atning 20-227-sahifalari), undan so‘ng sinonimik qatorlar (227-244-sahifa) berilgan. Sinonim so‘zlar alfavit tartibida berish bilan (245-262-sahifa) yakunlangan. Sinonim so‘zlar lug‘at maqolalarida quyidagicha berilgan:

AVVAL

ilgari burun

oldin qadim

Bu so‘zlar o‘tgan vaqtlar(da), hozirgi vaqtga qadar ma’nosi bilan birlashadi. *Avval, ilgari* so‘zlari shu ma’noda har jihatdan bir-biriga juda yaqin keladi. Ayrim hollardagina *ilgari* so‘zi *avval, oldin* so‘zlariga nisbatan uzoqroq o‘tmishni bildiradi. *Oldin – ko‘proq* oddiy so‘zlashuv stiliga xos. *Burun – ilgari* so‘ziga nisbatan uzoqroq o‘tmishni bildiradi. *Qadim – burun* so‘ziga nisbatan ham uzoq o‘tmishni bildiradi.

Misollar:

Tirikchiligimiz *avval* qanday bo‘lsa, hozir ham shunday (Oybek. Q.q.).

Ilgari kanal to‘g‘risida gap bo‘lganda Sidiqjon uni biron tegirmon suv eltadigan ariq deb o‘ylagan edi... (A.Qahhor, Qo‘sh. chir.).

Oldin nima gap o‘tgan – bunisidan xabarim yo‘q. Yolg‘on bo‘lsa, mana mulla Soli turibdi (M.Ismoiliy. F.t.o.).

Burun seni ko‘rganda
Ochilardi baxtimiz.
(H.Olimjon).

Shuncha tahqir, xo‘rlikni *qadim* ko‘targan o‘lka,
Endi solmas boshing uzra qora bulut ko‘lanka.
(G‘ayratiy. Tuzalgan o‘lka).

Har bir sinonim ashyoviy dalil ya'ni misollar keltirish bilan asoslab berilgan. Shu nuqtayi nazardan lug'atning qimmati oshgan desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Sinonimik qatorlar [4, 227] alfavit tartibida bosh sinonim so'zni keltirish bilan boshlangan hamda bosh (dominanta) so'zning sinonimlari undan so'ng keltirilgan. Masalan,

avvalgi
oldingi
ilgarigi,
burungi,
qadimgi,
sobiq kabi.

Sinonimlar (alfavit tartibida) [4, 245] berilganda esa barcha so'zlar alfavit tartibida keltirib o'tilgan. Uning muqobili qavs ichida ko'rsatilgan. Masalan,

abadiy (d. umrbod)
abjir (d. chaqqon)
ablah (d. axmoq)
avaylamoq (d. ehtiyotlamoq) kabi keltirilgan.

Haqiqatda esa tilda ma'no va boshqa jihatdan bir-biriga butunlay teng keladigan so'zlarning bo'lishi deyarli yo'q hodisa, birdan ortiq so'zning o'zaro sinonimligi yaqinlikka ko'ra emas, balki birlikka ko'ra belgilanadi [4, 5-7], deydi olim.

Bir sinonimik qatorga kiruvchi so'zlar uchun umumiy (bir xil) narsa shu so'zlarni birlashtiruvchi ma'noning bir xil bo'lishidir. Boshqacha qilib aytganda, sinonimik qatordagi biror so'zdagi ma'no boshqasida ham bo'ladi, ya'ni biror so'zda bor bo'lgan ma'no tovush jihatdan shu so'zdan butunlay farqlovchi boshqa so'zda ham bo'lsa, bu so'zlar o'zaro *sinonim* hisoblanadi.

O'zaro sinonim so'zlarning har birining o'ziga xos (farqli) belgisi, birinchidan, ularning talaffuz va yozilish jihatdan har xil (farqli) bo'lishi va, ikkinchidan, har birining o'ziga xos ma'no ottenkasi va qo'shimcha ma'nolarga egaligidir [4,8]. Lug'at tuzishda A.Hojiyev sinonim so'zlarning ana shu xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratadi.

Albatta, biror tilning sinonimlari lug'atini yaratish uchun shu ishni bajarishga imkon beradigan ma'lum sharoitlarning bo'lishi kerak. Biror tilning sinonimlari lug'atini tuzish ishini muvaffaqiyatli bajarish uchun, avvalo, bu tilda sinonimlar nazariy jihatdan to'la o'rganilgan bo'lishi, shuningdek, lug'at tuzish (ikki tilli lug'atlar, izohli lug'at va boshqa lug'atlar tuzish) praktikasi bo'lishi kerak. Azim Hojiyev o'zbek tilida sinonim so'zlar ilmiy-nazariy jihatdan to'liq o'rganilmagan va o'zbek tilining izohli lug'ati tuzilmagan bir davrda bu muhim va dolzarb ishni amalga oshirdi.

O'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilida, shuningdek, boshqa turkiy tillarda ham, shu vaqtga qadar sinonim so'zlar lug'atining maydonga kelmaganligini, bizningcha, yuqoridagi ikki sharoitning yetarli darajada mavjud bo'lmaganligi bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, o'zbek tilining izohli lug'ati hali yaratilgan emas. Bu hol o'zbek tili sinonimlarining lug'atini tuzish ishini ancha qiyinlashtiradi. Lekin tilshunoslikda sinonimlar masalasi bo'yicha qilingan nazariy ishlar, shuningdek, leksikografiya sohasida qilingan ishlar hozirgi vaqtda o'zbek tili sinonimlarining qisqacha lug'atini tuzish imkonini beradi [4, 9], deydi olim lug'at tuzishga kirishgan vaqtda.

Sinonimlar qatoridagi *asosiy so'z* (dominanta)ni to'g'ri belgilash tuzuvchidan ancha ehtiyotkorlikni talab etadi. Sinonimik qatordagi keng tushunchaga ega bo'lgan, ekspressiv-emotsional va stilistik jihatdan neytral bo'lgan va shu qatordagi so'zlar uchun umumiy bo'lgan ma'noni aniq ifodalaydigan so'z *asosiy so'z* (dominanta) hisoblanadi. Olimning bu fikrlari asosli va hozirgi vaqtda ham dominanta sinonim so'zga shunday munosabatda bo'linmoqda.

Bir tushunchani ifodalashiga ko'ra o'zaro sinonim hisoblangan so'zlar gruppasi *sinonimlar qatori* (sinonimik qator) deyiladi. Sinonimik qatorlarda so'zlarning soni har xil bo'lishi mumkin. Masalan, *bosh, kalla* sinonimik qatorida ikki so'z sinonim bo'lsa, *chiroyli, go'zal, ko'rkam, ko'hlik, xushro'y, suluv, zebo* sinonimik qatori yetti sinonim so'zdan tashkil topgan va hokazo [4, 12]. Shu o'rinda bir fikrni aytib o'tmoqchimiz. Sinonim so'zlar ikki so'zdan iborat bo'lganda dominanta so'z haqida gapirish qiyin. Bu, albatta, munozarali. Fanda o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Har bir sinonimik qatorning chegarasi undagi so'zlarni bir-biriga qiyoslash orqali emas, balki asosiy so'zga qiyoslash orqali belgilanadi. Bir-biriga qiyoslash ikki so'z o'rtasida bo'ladi, asosiy so'zga qiyoslansa kamida uch so'z bo'lishi talab etiladi.

Sinonimlarning bir-biridan farqlovchi belgi-xususiyatlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin [4, 13]:

- sinonimlarning keng yoki tor tushunchaga egaligi;

- sinonimlar ifodalagan tushunchadagi belgi darajasining kuchli yoki kuchsizligi;
- sinonimlarning salbiy yoki ijobiy emotsional bo‘yoqqa ega yoki ega emasligi;
- sinonimlarning qo‘llanish doirasi;
- sinonimlarning termin sifatida qo‘llanish yoki qo‘llanmasligi;
- sinonimlarning qaysi stilga xosligi;
- sinonimik qatordagi so‘zning hozirgi tilga mansubligi yoki hozirgi til nuqtayi nazardan eskirganligi;
- sinonim so‘zning adabiy til yoki dialektga xosligi [4, 14].

Sinonimlar lug‘atida quyidagi narsalarga ahamiyat berildi: sinonimik qatordagi asosiy so‘zni va sinonimik qatorning chegarasini belgilash; sinonimik qatordagi so‘zlarni birlashtiruvchi ma’noni ko‘rsatish; sinonimik qatordagi so‘zlarning o‘ziga xos belgi-xususiyatlarini ko‘rsatish; ko‘rsatilgan ma’no va belgi-xususiyatlarni misollar bilan tasdiqlash [4, 18].

Azim Hojiyevning 1963-yilda nashr etilgan “O‘zbek tili sinonimlarining qisqacha lug‘ati”da 1700 dan ortiq sinonimlarni o‘zi ichiga olgan. Lug‘at o‘z nomi bilan qisqacha lug‘at bo‘lganligi uchun o‘zbek tilidagi barcha sinonim so‘zlarni qamrab olmagan. Tilda faol bo‘lgan sinonim so‘zlar, faqat leksik sinonimlar lug‘atga kiritilgan. Lug‘atga faqat mustaqil so‘zlar kiritlgan bo‘lib, yordamchi so‘zlar, undovlar, modal so‘zlar kiritilmagan.

Ish yakunida alfavit tartibida lug‘atga kiritilgan sinonimlar qatori va sinonimlar ro‘yxati keltirilgan.

Olim sinonimlar lug‘atini takomillashtirish yo‘lidan borib, 1974-yilda to‘ldirilgan va qayta ishlangan “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” nomi bilan nashr ettirdi [5, 308]. 1963-yildagi nashrdan farqi “qisqacha lug‘at” nomi “izohli lug‘at” nomi bilan almashtirildi va 15 000 nusxada “O‘qituvchi” nashriyotida chop etildi. Lug‘at kirish (3-6-sahifalar), sinonim so‘zlarga berilgan lug‘at maqolalar (7-273-sahifalar), alfavit ko‘rsatkich (274-307-sahifalar)dan iborat. Izohli lug‘atga qancha sinonim so‘zlar kiritilganligi va izohlanganligi haqida ma’lumot berilmagan. So‘zboshi ham berilmagan. Sinonim so‘zlar haqidagi nazariy ma’lumotlar ham avvalgi nashrdan olingan va qisqartirilgan holda berilgan. Shunday bo‘lishiga qaramay “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”ga o‘zbek tilida faol bo‘lgan sinonimlar to‘liq qamrab olishga harakat qilgan. Lug‘at maqollalar qaytadan to‘ldirilgan, izohlangan, misollar bilan asoslangan.

Avvalgi nashrda yordamchi so‘zlar kiritilmagan edi, bu nashrda esa yordamchi so‘zlar ham sinonim bo‘la olishi keltirilgan va lug‘atga sinonimik qatorlardan ham kiritilgan.

2022-yilda professor Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida ikki jilddan iborat “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati” [2, 505] nashr etildi. Mazkur lug‘atda ilk marta ona tilimizning boyligi hisoblangan leksik sinonimlarning keng qamrovli leksikografik talqini amalga oshirilgan. Lug‘atdan leksik sinonimlarning leksikografik izohlari, sinonimik qatordagi so‘zlarning ma’no nozikliklari, bu ma’noviy farqlanishlarni dalillovchi, ijobiy-salbiy bahosi hamda uslubiy o‘ziga xosliklarini ko‘rsatuvchi illyustrativ misollar o‘rin olgan. Lug‘atga faqat mustaqil so‘zlardan iborat sinonimik qatorlargina emas, balki yordamchi so‘z turkumlari doirasidagi sinonimik qatorlar ham kiritilgan. Lug‘at o‘zbek tilshunosligi va turkiyshunoslik bo‘yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oliy ta’lim muassasalarining o‘qituvchilari va talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi uchun mo‘ljallangan.

Sinonimlar va sinonimlarning izohli lug‘atini tuzish masalasida A.Hojiyev o‘z fikrini har tomonlama o‘ylab, ancha ehtiyotlik bilan bildiradi. U: “Agar hech qanday farqli belgi bo‘lmasa, bunday sinonimlik (absolyut sinonim) o‘tkinchi holat...” – deydi [3, 241]. Uningcha, *absolyut sinonim* tarkibidagi bir so‘z yo arxaiklashadi, yo sherigiga nisbatan semantikasini bir jihati bilan farqlaydi. Bu gap haqiqatga ancha mos keladi. Faktlarga murojaat qilaylik. Rus tilida shu vaqtgacha *aeroplan* va *samalyot* so‘z juftligi absolyut sinonim deb kelinadi. Ammo so‘ngi vaqtlarda *samalyot* so‘zi umumxalq nutqida keng qo‘llansa, aeroplan so‘zi kitobiy lsksikaga xoslanayotganligi sezilmoqda. Bu so‘zlardagi taraqqiyotni o‘zbek tili nuqtayi nazaridan ham aytish mumkin. O‘zbyek tilida *tilshunos* va *lingvist* so‘zlari absolyut sinonim deb ko‘rsatib kelinadi. Lekin hozir *tilshunos* so‘zi umumso‘zlashuv tilida qo‘llansa, *lingvist* so‘zi deyarli kitobiy leksikaga xoslanib bo‘ldi. Absolyut sinonimlar deyarli tillarda sanoqli miqdorda uchraydi. Uning ham ayrimlari yuqoridagicha absolyutligini yo‘qotadigan bo‘lsa, bu A.Hojiyev o‘z qarashi bilan nihoyatda haq ekanligini ko‘rsatadi [1, 192].

O‘zbek tilshunosligida sinonimik qatorlar anchayin batafsil va ziyraklik bilan tavsiflangan lug‘atni A.Hojiyev yaratgan. Uning “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (Toshkent, O‘qituvchi, 1974)da o‘zbek tilidagi sinonimlarni izohlashda mazkur parametrlarning aksariyati o‘z aksini topgan. Ammo mazkur parametrlarning inobatga olinmaganlari ham tabiiy ravishda ancha-muncha bor. Aytish lozimki, bu lug‘at o‘zbek lug‘atchiligidagi sinonimiyaga bag‘ishlangan yagona jiddiy leksikografik ishdir, lekin uning nashr qilinganiga qariyb yarim asr bo‘lgan. Ayni paytda O‘zbekiston mustaqillikka erishdi, tamoman yangi jamiyat barpo bo‘ldi, mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va siyosiy hayot mutlaqo yangi o‘zanlarda shitob bilan rivojlanib bormoqda. Bu, shubhasiz, tilimizda, ayniqsa uning leksikasida qonuniy ravishda o‘z ifodasini topmoqda [2, 10].

2022-yilda nashr etilgan ikki qismdan iborat “O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati”ning ham yaratilishida Azim Hojiyev yaratgan lug‘at asos sifatida olingan va albatta unga tanqidiy yondashilgan. Akademik A.Hojiyevning leksikografik, jumladan o‘zbek tili sinonimlari izohli lug‘atini yaratishdagi izlanishlarini yuksak baholash mumkin.

АДАБИЁТЛАР

1. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 288 б.

2. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati, II jildli / Nizomiddin Mahmudov tahriri ostida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022.

3. Ҳожиев А. Синонимия // Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент: Фан, 1981. – 241 б.

4. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг қисқача луғати. – Тошкент: ЎзССР Фанлар академияси нашриёти, 1963. – 264 б.

5. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўқитувчи” нашриёти, 1974. – 308 б.

Reviewer:
F. G. Sharipov
DSc, Professor
Gulistan State University

AUTHOR(S):

Author – Mamatqulov Azizbek Rustamovich, mamatqulovazizbek006@gmail.com
Corresponding author – Mamatqulov Azizbek Rustamovich, mamatqulovazizbek006@gmail.com